

OMMAVIY OFERTA

E-polis (elektron polis)ni onlayn rasmiylashtirish shartlari bo'yicha

Ushbu ommaviy oferta (bundan keyin - oferta) "NEO INSURANCE CORP" AJ sug'urta kompaniyasi (bundan keyin - sug'urtalovchi) va Foydalanuvchi (sug'urta qildiruvchi) o'rtasida E-polis (elektron polis)ni onlayn rasmiylashtirish (shartnoma tuzish va bekor qilish) tartibini hamda sug'urta shartlarini belgilaydi (www.neoinsurance.uz veb-sayti va mobil ilovasi uchun).

Mazkur oferta O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi, "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 780-son qarori bilan tasdiqlangan "E-polisni sotish, rasmiylashtirish va ularning haqiqiylikini tekshirish qoidalari" hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 24-iyundagi 141-son qarori bilan tasdiqlangan "Transport vositalari egalari uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari" asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu ofertaga rozilik bildirish orqali, Foydalanuvchi (sug'urta qildiruvchi) o'z shaxsiy ma'lumotlarini ular taqdim etilgan maqsadlarda ishlatishga ruxsat beradi. Bu maqsadlarga quyidagilar kiradi: saytga tashrif buyuruvchini aniqlash, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish tizimida (shaxsiy kabinetda) ro'yxatdan o'tkazish, teskari aloqa o'rnatish, shu jumladan xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq xabarlar va so'rovlar yuborish, tashrif buyuruvchilarning so'rov va arizalarini ko'rib chiqish, shuningdek Sug'urtalovchining qabul qilinayotgan Ofertasiga muvofiq boshqa maqsadlar.

1. Umumiy qoidalar va asosiy tushunchalar

1.1. Ushbu ofertada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

E-polis - majburiy yoki ixtiyoriy sug'urta turi bo'yicha elektron shaklda tuzilgan shartnoma;

Sug'urta summasi - sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalovchi jabrlanuvchiga (uning merosxo'riga yoki huquqiy vorisiga) yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini olgan pul mablag'larining chegaraviy miqdori;

Sug'urta mukofoti - foydalanuvchi (sug'urta qildiruvchi) E-polisni sotib olish uchun sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan pul mablag'lari summasi;

Sug'urta qoplamasi - sug'urtalovchi E-polis bo'yicha sug'urta hodisasi sodir bo'lganda jabrlanuvchining hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash uchun sug'urta summasi doirasida to'lash majburiyatini olgan pul mablag'lari summasi;

Transport vositasi egasining yaqin qarindoshlari - transport vositasidan foydalanish va uni boshqarish uchun notarial tasdiqlangan ishonchnoma talab qilinmaydigan transport vositasi egasining yaqin qarindoshlari (ota-onasi, turmush o'rtog'i, farzandlari, aka-ukalari, opa-singillari);

Rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan foydalanish - sug'urta qildiruvchining undan foydalanishga qaratilgan har qanday harakati.

Veb-sayt va mobil ilova - www.neoinsurance.uz manzili bo'yicha Internet tarmog'ida bunday ma'lumotlardan foydalanish imkonini beruvchi axborot tizimida joylashgan axborot, matnlar, grafik elementlar, dizayn, tasvirlar, foto va video materiallar hamda intellektual faoliyatning boshqa natijalari, shuningdek kompyuter dasturlari majmuasi

1.2. Oferta amal qiladigan hudud - O'zbekiston Respublikasi.

1.3. Chet davlatlarda ro'yxatdan o'tkazilgan va O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha foydalanilayotgan transport vositalarining egalari ushbu ofertaning taraflari bo'la olmaydilar.

1.4. Rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan foydalanishda foydalanuvchi (sug'urta qildiruvchi) avvalo ushbu oferta shartlari bilan to'liq tanishib chiqishi lozim. Agar foydalanuvchi (sug'urta qildiruvchi) ofertaning shartlariga yoki uning ayrim qismlariga rozi bo'lmasa, rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan foydalanishni to'xtatishi kerak.

Foydalanuvchi (sug'urta qildiruvchi) tomonidan rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan foydalanishni davom ettirish uning ushbu oferta shartlariga to'liq va so'zsiz roziligini anglatadi.

2. E-polisni rasmiylashtirish

2.1. E-polis sug'urtalovchining www.neoinsurance.uz rasmiy veb-sayti yoki uning mobil ilovasi, telegram-boti va/yoki elektron to'lov tizimi orqali rasmiylashtiriladi.

2.2. **OSAGO/KASKO** E-polisini rasmiylashtirish uchun sug'urta qildiruvchi har bir transport vositasi bo'yicha E-polisni rasmiylashtirish to'g'risidagi elektron arizaga quyidagi ma'lumotlarni kiritadi:

- transport vositasini boshqarishga ruxsat berilgan sug'urta qildiruvchining va/yoki jismoniy shaxslarning shaxsiy identifikatsiya raqami hamda seriyasi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat raqami (agar E-polis transport vositasini boshqarishga faqat muayyan shaxslar qo'yilishi sharti bilan rasmiylashtirilayotgan bo'lsa);
- soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (yuridik shaxslar uchun);
- transport vositasi egasining shaxsiy identifikatsiya raqami, seriyasi va shaxsini tasdiqlovchi hujjat raqami (agar transport vositasining egasi boshqa jismoniy shaxs bo'lsa);
- elektron pochta manzili (mavjud bo'lsa);
- mobil telefon raqami;
- E-polis rasmiylashtiriladigan transport vositasining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning davlat ro'yxat raqami, seriyasi va raqami; transport vositasidan foydalanish va boshqarishga ruxsat berilgan yaqin qarindoshlarning (ota-onalar, er (xotin), o'g'il, qiz, aka-uka, opa-singillar) qarindoshlik darajasini tasdiqlovchi hujjatlarning tegishli raqamlari;
- transport vositasi ro'yxatdan o'tkazilgan joy;
- sug'urta muddati (1 yil, 10 yoki undan ortiq kun (ro'yxatga olish joyigacha));
- E-polisni rasmiylashtirish to'g'risida xabarnoma yuborish shakli (telefon raqami yoki elektron pochta manzili yoki veb-saytda yoxud mobil ilova orqali ochilgan shaxsiy kabinet orqali). Bunda yagona axborot tizimida mavjud bo'lgan tegishli ma'lumotlar avtomatik tarzda to'ldiriladi.

2.3. Elektron ariza to'liq to'ldirilganidan so'ng sug'urta qildiruvchi jo'natish tugmasini bosadi.

2.4. Elektron arizada yuborilgan ma'lumotlar sug'urtalovchining mas'ul xodimlari tomonidan bir ish kuni mobaynida ularning to'liqligi va to'g'riligi yuzasidan tekshiriladi, shundan so'ng sug'urta mukofotini to'lash yoki tuzatilgan ma'lumotlarni qayta yuborish mumkinligi to'g'risida bildirishnoma yuboriladi. Agar sug'urta qildiruvchi ariza berilgan sanadan boshlab 24 soat ichida ma'lumotlarni takroran tekshirmasa va/yoki tuzatmasa, u holda sug'urta tashkiloti sug'urta qildiruvchini o'zining Internet tarmog'idagi resursi yoki SMS-xabar orqali E-polisni rasmiylashtirish, qayta rasmiylashtirish va bekor qilish imkoniyati yo'qligi to'g'risida xabardor qiladi.

2.5. Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini to'lash imkoniyati to'g'risidagi xabarnomani olgandan so'ng 24 soat ichida sug'urta mukofotini elektron to'lov tizimlari orqali, naqd pul yoki pul o'tkazish yo'li bilan (yuridik shaxslar) to'lashi lozim. Agar sug'urta mukofoti E-polisda nazarda tutilganidan kam miqdorda to'langan bo'lsa, sug'urta tashkiloti sug'urta qildiruvchiga sug'urta mukofotining yetishmayotgan qismini 72 soat ichida to'lash zarurligi to'g'risida darhol xabarnoma yuboradi.

2.6. Sug'urta mukofotining to'lanishi sug'urta qildiruvchi tomonidan ushbu ofertaning aksept qilinganligini anglatadi. E-polis sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langan paytdan boshlab kuchga kiradi. Sug'urta elektron majburiy sug'urta shartnomasi kuchga kirgandan keyin sodir bo'lgan sug'urta hodisalariga, agar E-polisda sug'urtaning amal qilishi boshlanishining boshqa muddati nazarda tutilmagan bo'lsa, tatbiq etiladi.

2.7. Sug'urta mukofoti to'liq to'langanidan so'ng, E-polisni rasmiylashtirish to'g'risidagi xabarnoma sug'urta qildiruvchi tomonidan tanlangan shaklda yuboriladi.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

3.1. Sug'urta qildiruvchining quyidagi huquqlari bor:

Sug'urtalovchidan E-polis bo'yicha tushuntirishlar talab qilish;
istalgan vaqtda rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan foydalanishni to'xtatish;
majburiy sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi sug'urtalovchini tanlash.

Sug'urta qildiruvchi quyidagilarga majbur:

E-polis bo'yicha o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni belgilangan tartib va muddatlarda bajarish;
E-polis bo'yicha sug'urta mukofotini belgilangan tartib va shartlarda to'lash.

3.2. Sug'urtalovchining quyidagi huquqlari bor:

jabrlanuvchining (uning merosxo'rlari yoki huquqiy vorislarining) arizasini ko'rib chiqishda tegishli ekspertlarni jalb etish;

sug'urta qildiruvchi taqdim etgan axborotni tekshirish, sug'urta shartnomasi talablari va shartlari bajarilishini nazorat qilish;

sug'urta hodisalari yuz berishining oldini olish bo'yicha tavsiyalar berish;

qonun hujjatlarida belgilangan hollarda to'langan sug'urta tovonining regress tartibida qaytarilishini talab qilish.

Sug'urtalovchi quyidagilarga majbur:

sug'urta qildiruvchiga o'z Internet-resursidan kecha-yu kunduz to'sqinliksiz foydalanish imkoniyatini yaratish;

sug'urta qildiruvchi va (yoki) jabrlanuvchining murojaatini ko'rib chiqib, sug'urta to'lovi va (yoki) sug'urta tovonini to'lash;

o'z faoliyatini amalga oshirish chog'ida olingan sug'urta qildiruvchi va jabrlanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlash.

3.3. Rasmiy veb-sayt yoki mobil ilovadan foydalanish imkoniyati faqat Internet jahon axborot tarmog'iga ulanish mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Shuning uchun sug'urta qildiruvchi belgilangan tartibda Internetga ulanish choralarni mustaqil ravishda ko'rishi kerak.

3.4. Sug'urtalovchi quyidagilar uchun javobgar emas:

rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan foydalanish bilan bog'liq sug'urta qildiruvchining zararlari;
sug'urta qildiruvchi tomonidan rasmiy veb-sayt va mobil ilovadagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga uzatish oqibatlari;

sug'urtalovchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra rasmiy veb-sayt va mobil ilovadan foydalanish imkoniyati yo'qligi sababli xizmatlar ko'rsatilmaligi.

3.5. Jabrlanuvchi quyidagi huquqqa ega:

Sug'urtalovchiga sug'urta to'lovini va (yoki) sug'urta qoplamasini amalga oshirish uchun murojaat qilish;

sug'urtalovchining sug'urta to'lovini va (yoki) tovonini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilish;

qonun hujjatlarida belgilangan shartlar asosida sug'urta to'lovini va (yoki) tovon pulini olish.

4. Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish shartlari

4.1. Sug'urta qildiruvchi tomonidan E-polisni rasmiylashtirish to'g'risidagi elektron arizaga ma'lumotlarni kiritish uning shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berishga (shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, yozish, tizimlashtirish, saqlash, ulardan foydalanish va bekor qilishga) roziligi hisoblanadi.

4.2. Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish maqsadida shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Yakuniy qoidalar

5.1. Ushbu oferta talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

5.2. Ushbu ofertada nazarda tutilgan yoki u bilan bog'liq masalalar bo'yicha taraflar o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, taraflar ularni sudgacha hal etish choralarini ko'rishlari kerak.

5.3. Nizolarni sudgacha hal qilish imkoni bo'lmaganda, ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sudda hal qilinishi lozim.

5.4. Ushbu ofertada nazarda tutilmagan holatlar bo'yicha yuzaga kelgan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

DIQQAT!

SUG'URTA QILDIRUVCHI ELEKTRON POLISNI RASMIYLASHTIRISH UCHUN O'ZI TOMONIDAN SUG'URTALOVCHIGA TAQDIM ETILADIGAN MA'LUMOTLAR VA HUJJATLARNING ISHONCHLILIGI UCHUN JAVOBGARDIR.

